

QANDLI DIABET VA UNING PATALOGIYASI

Fotima Sharipovna Nazarova

Samarqand davlat tibbiyot instituti tibbiy biologiya va genetika kafedrası.

Xilola Axmadovna Abdurasulova

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Dunyo miqyosida qandli diabet bilan kasallangan bemorlar soni ortib bormoqda. Kasallik jins va yosh tanlamaydi. U birdek kattalar va bolalar orasida uchrashı mumkin. Songgi yillarda qandli diabetga irsiyat, stress, ortiqcha vazn muammolari va moddalar almashinuvida buzilishlar sabab bolmoqda. Qandli diabetni butun umr davolanishi kerak bolgan kasallikdir. Qandli diabet natijasida yana boshqa (bosh miya insulti, yurak xuruji, ateroskleroz) kasalliklar rivojlanishi mumkin. Qandli diabetni davolashda nafaqat kimyoviy dori darmonlar balki, tabiiy osimliklar ham samarali yordam beradi.

Kalit sozlar: Glukoza, insulin gormoni, tabiiy shifobaxsh osimliklar, dieta, semizlik, glukosuriya, stress, irsiyat, gipertoniya.

Asosiy maqsadi. Butun dunyoda qandli diabet bilan kasallanganlar soni ortib bormoqda. Xalqaro sogliqni saqlash tashkilotining malumotlariga qaraganda hozirgi kunda qandli diabet dunyo miqyosida 540 mlnga yaqin insonda qayd etilgan.

Qandli diabet insulin gormoni muvozanati va glukoza soʻrilishining buzilishi oqibatida kelib chiqadigan kasallikdir. Qand kasalligi (lot. diabetes) moddalar almashinuvi buzilishi va oshqozon osti bezining normal funktsiya bajarmasligi natijasida yuzaga keladigan kasallikdir. Oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan insulin gormoni qondagi glukozani glukogenga aylantirib beradi va glukoza miqdorini meʼyorlashtiradi. Insulin gormoni normal faoliyat koʻrsatmasa, qonda qandning miqdori oshib, moddalar almashinuvi buziladi. Qondagi ortiqcha qand miqdori glukosuriya (lot. glucosuria - siydik orqali glukoza ajralib chiqishi) jarayonida qondan chiqarib yuboriladi. Qonda qand miqdorining ortib ketishi qonning quyusqlashuviga va boshqa organlar normal faoliyatiga jiddiy tasir korsatadi. Buning oqibatida qon tomirlarda qon oziq moddalarni toʻqimalarga olib borishi susayadi, natijada moddalar almashinuvi va insonning aqliy faoliyatiga ham tasir koʻrsatadi. Qonda qand miqdori ortganda arterial bosim ham ortib ketadi. Bu vaqtda ularda charchoq, tushkunlik, uyqusizlik, koʻzlar va qovoqlarda ogriq kabi belgilar namoyon boladi. Qand kasalligi insulin tanqisligi yoki insulin gormoni faoliyatining buzilishida rivojlanadigan kasallik.

Tadqiqot materilallari va natijalari:. Qandli diabetning asosiy 2 ta turi va ularning belgilari bir biridan farqlanadi.

1-turida oshqozon osti bezida insulin ishlab chiqarish imkoni bo`lmaydi, ularning organizmi bu bez hujayralarini yo`q qiluvchi antitana hosil qiladi.Ularda immunitet tizimida buzilishlar yuzaga keladi.1- tur bilan asosan, bolalar kasallanadi.Bu turida kasallanganlarga insulin inyeksiya qilinadi.1-turini davolash imkoni yo`q, shu sababli doimiy parhez va insulin inyeksiyasi kasallikda yordam beradi.

2- turida esa insulin bilan bogliq bo`lmasdan to`qimalarning insulinga sezgirligi kamayadi,to`qimalarda glukoza so`rilishi pasayib, glukozaning qondagi miqdori ortib boradi.Dunyo bo`yicha qandli diabet bilan kasallanganlarning 90 % qismi 2- tur qandli diabet bilan kasallangan.Bu turi bilan asosan, kattalar kasallanadi.Kasallikning 2-turi bilan kasallangan bemorlar muntazam ravishda jismoniy faol bolishi va dori vositalarini qabul qilishi hamda ovqatlanish tartibiga rioya qilishi kerak.

Qandli diabet kasalligi irsiyatda bo`lishi yoki shu insonda moddalar almashinuvi buzilishi oqibatida, individual ravishda paydo bo`lishi mumkin.Qandli diabet rivojlanishiga sabab bo`luvchi asosiy omillar:

- | semizlik va ovqatlanish tartibining buzilishi,
- | stress,tajanglik,
- | irsiyatdir.

Qandli diabetga chalingan bemorlarda ko`p hollarda, og`iz qurishi, chanqoqlik, siydik ajralishining ortishi, ortiqcha vazn yoki juda ham ozg`inlik, ko`p miqdorda terlash va teridan atseton hidining sezilishi, yaralarning qiyin bitishi,ayrim hollarda, terida turli qizil toshmalar yuzaga kelishi,terining juda quruq bolishi,yuz rangining qizarishi,asabiy va taranglik hamda gipertoniya ya`ni, qon bosimining ortishi, bosh og`rig`i,oyoq og`rig`i va bog`imlardagi og`riq kabi ko`plab belgilarni namoyon qiladi. .Qandli diabet bilan kasallangan insonlarda juda ko`p shirinlik yeyishga bo`lgan xohish hamda doimiy ochlik hissi paydo boladi.

Qandli diabet kasalligida moddalar almashinuvi buzilib,moddalar almashinuviga bogliq bo`lgan bir qancha kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.Ulardan ko`pchiligi qon aylanishiga bog`liq bo`lgan muammolar bo`lib,soglom turmush tarziga rioya qilmaslik, doimiy stress va kam jismoniy mashg`ulotlar uning jadal rivojlanishiga sabab bo`luvchi asosiy omil bo`lishi mumkin.Qandli diabet bilan kasallanganda va uni davolashga harakat qilinmaganda ateroskleroz,bosh miya insulti,miokard infarkti kabi hozirgi kunda ko`payib borayotgan kasalliklar rivojlanadi.Ularning barchasi qon aylanishi normal bormasligi oqibatida kelib chiqadi.Ateroskleroz ham qon oqimi qiyinlashgani va qon tomirlar yog` moddalari bilan torayib qolgani sababli rivojlanadi.Bosh miya insulti va infark kasalliklarida ham qon aylanishidagi muammolar asosiy sabab boladi.Qandli diabet bilan kasallanganlar orasida

bog'imlardagi og'riq va gipertoniya-qon bosimining ko'tarilishi doimiy kuzatilib turiladi.

Qandli diabet nasldan naslga o'tuvchi kasallikdir. Biroq, u, naslida kasallanganlar bor bolgan barchada birdek namoyon bo'lavermaydi. Unga moyilligi bo'lgan va uning oldini olmagan, ortiqcha vaznli bo'lgan insonlarda kasallik belgilari jadal rivojlanadi. Qandli diabet umr davomida davolashni talab etadi. Uning oldini olish uchun va qo'shimcha turli dori moddalarini doimiy qabul qilish va ratsionni nazoratga olish talab qilinadi. Qandli diabet bilan kasallanganda shirinliklarni qabul qilish mumkin emas. Uning ortiqcha miqdori kasallik rivojlanishiga va qonda qand miqdori ko'rsatgichi ortib ketishiga sabab bo'ladi. Qondagi qand miqdori oq non mahsulotlarida ham ko'p bo'ladi. Chunki uning asosiy tarkibini maltoza tashkil etib, u glukozaning manbai hisoblanadi. Meva mahsulotlari orasidan uzum, ananas, mango, qovun ham qand miqdorini oshiradi, chunki uning tarkibi ham shakarga boy boladi. Bir vaqtda turli xil mevalarni iste'mol qilish ham tavsiya etilmaydi. Gazli ichimliklar va sharbatlarning tarkibi deyarli shakar mahsulotlaridan iborat. Ullarning doimiy istemol qilinishi ortiqcha vazn yig'ishga va qand miqdori darajasining ortishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun qandli diabetni davolashda asosan, parhez buyuriladi.

Qandli diabetni davolashda tabiiy vositalardan ham keng foydalanish samara beradi. Osimliklar va tabiiy mahsulotlar dori vositalaridan farqli ravishda boshqa organlar faoliyatiga jiddiy tasir ko'rsatmaydi va ularning faoliyatini buzmaydi. Chunki dori mahsulotlari oxir oqibat jigar va buyrakda eriydi va uning faoliyatiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Qandli diabetni davolashda foydalaniladigan ayrim tabiiy vositalar: zanjabil, topinambur, semiz o't o'simligi, zangori sachratqi, tuya suti va ayrim donli mahsulotlar va b.

Zangori sachratqining yer ustki qismi choy o'rnida damlab ichilsa, oshqozon osti beziga ta'sir korsatib, qandli diabetni yaxshilashga samarali tasir ko'rsatadi.

Zanjabil qonni tozalashga yordam beradi, natijada qon aylanishi yaxshilanib, moddalar almashinuvi normal holatga keladi, zanjabil qandli diabetda shifo topishga yordam beradi.

Tuya sutining foydali xususiyatlari ko'p bolib, shuningdek, qondagi qand miqdorini sezilarli darajada tushiradi.

Topinambur yoki yer noki nomini olgan ushbu mahsulot 2- tur qandli diabetni davolashda foylaniladi.

Semiz o't o'simligi O'rta O'siyo sug'orma dehqonchilik zonalarida ko'p uchraydi. Uning dorivor xususiyati ko'p bo'lib, uni muntazam is'temol qilish qandli diabetni davolaydi.

Mosh, no`xat ,loviya kabi mahsulotlar ham diabet xavfini ma`lum foizlarga kamaytiradi.

Shakar qo`shilmagan meva, savzavot sharbatlarini istemol qilish kletchatkaga boy bo`lgan ko`katlar qand miqdoriga ta`sir ko`rsatmaydi. Qandli diabetga uchragan insonlar shifokor bilan maslahatlashishi va uning yordami bilan ovqat ratsionini tuzishi kerak.

Xulosa: Qandli diabet jiddiy surunkali kasalliklarga yuqori darajadagi sabab bo`luvchi kasallikdir. Sog`lom turmush tarziga rioya qilish, sog`lom ovqatlanish, shakarli mahsulotlar , gazli ichimliklar, yog`li va uglevodga boy mahsulotlarni kunlik ratsionda kamaytirish, naslida qandli diabet bilan kasallanganlar bo`lsa, muntazam tibbiy ko`rikdan o`tish shifokor nazoratida bo`lish va uning oldini olishga qaratilgan barcha chora tadbirlarni ko`rish, jismoniy faol bo`lish, ortiqcha vazn yig`ishdan tiyilish, chekish va alkogol mahsulotlaridan foydalanmaslik qandli diabet rivojlanib borayotgan bir vaqtda, nafaqat shu kasallikning , balki, boshqa kasalliklarning rivojlanishini ham oldini oladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Matkarimova Gulnaz Maksudzhanovna, Nazarova Fatima Sharipovna, « USEFUL PROPERTIES OF MEDICINAL PLANTS», Дата публикации 2020/6/11, Журнал «Archive of Conferences», Том 1, Номер 1, Страницы 125-127.
2. Nazarova Fatima Sharipovna, «ECOLOGICAL GROUPING OF PHYTONEMATODES OF TUGAI PLANTS», Дата публикации 2021/8/30, Журнал «ResearchJet Journal of Analysis and Inventions», Том 2, Номер 08, Страницы 64-69.
3. Nazarova Fatima Sharipovna, Soatov Oybek Farhodovich, «Use Of Montmorillonite Bentonite Group Minerals for Balanced Mineral Nutrition.», Дата публикации 2022/4/18 г., Журнал «Texas Journal of Multidisciplinary Studies», Том 7, Страницы 234-237.
4. F.Nazarova, N.Djumanova, B.Murodullayeva, «FEATURES OF MORPHOPHYSIOLOGICAL AND BIOCHEMICAL SPECIALIZATION OF HELMINTHS», Дата публикации 2023г., Журнал «Science and innovation», Том 2, Номер D2, Страницы 283-286.
5. Fotima Sharipovna Nazarova, Nargiza eshmamatovna Djumanova, Parizoda Husanovna Doniyorova, «KARBONSUVLAR ALMASHINUVINING BUZILISHI VA GALAKTOZEMIYA KASALLIGINING IRSIYLANISHI, SIMPTOMLARI DIAGNOSTIKASI», Дата публикации 2023/3/1, Журнал «Innovations in Technology and Science Education», Том 2, Номер 7, Страницы 438-445.
6. Фотима Шариповна Назарова, Наргиза Эшмаматовна Джуманова, Паризода Хусановна Дониёрова, «ДИАГНОСТИКА НАСЛЕДСТВЕННОСТИ И СИМПТОМОВ НАРУШЕНИЯ УГЛЕВОДНОГО ОБМЕНА И

- ГАЛАКТОЗЕМИИ», Дата публикации 2023/3/1, Журнал «Innovations in Technology and Science Education», Том 2, Номер 7, Страницы 446-454.
7. Fatima Sharipovna Nazarova, Istamova Zarina, «Properties of trematodes of the BILHARZIELLIDAE family», Дата публикации 2023/5/15, Журнал «INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES», Том 2, Номер 5, Страницы 136-139.
 8. Fatima Sharipovna NAZAROVA, Ruhshona Nurbekovna Kuvondikova, «Stem cells and its importance in medicine», Дата публикации 2023/11/11, Журнал «Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research», Том 10, Номер 11, Страницы 126-129.
 9. Фатима Шариповна Назарова, Гулноза Максуджановна Маткаримова, Гулчехра Хамрокуловна Назарова, «Лечебные свойства бентонита», Дата публикации 2020, Журнал «Достижения науки и образования», Номер 5 (59), Страницы 93-97, Издатель ООО «Олимп».
 10. Фатима Шариповна Назарова, Гулназ Максуджановна Маткаримова, «Морфо-физиологические и биохимические свойства приспособления гельминтов», Дата публикации 2019, Журнал «Проблемы науки», Номер 4 (40), Страницы 26-27, Издатель ООО «Олимп».
 11. Фатима Шариповна Назарова, Гулназ Максуджановна Маткаримова, «Гельминтозы человека и их морфо-физиологические свойства приспособления», Дата публикации 2020, Журнал «Достижения науки и образования», Номер 5 (59), Страницы 89-92, Издатель ООО «Олимп».
 12. Фатима Шариповна Назарова, НЭ Джуманова, «Биологическая роль микроэлементов и их содержание в эпидермальных образованиях», Дата публикации 2022, Журнал «Экономика и социум», Номер 1-2 (92), Страницы 94-102, Издатель ООО «Институт управления и социально-экономического развития».
 13. Фатима Шариповна Назарова, Наргиза Эшмаматовна Джуманова, «Использование бентонита азкамарского месторождения для балансирования минерального питания», Дата публикации 2021, Журнал «Academic research in educational sciences», Том 2, Номер 9, Страницы 672-679, Издатель ООО «Academic Research».
 14. Фатима Шариповна Назарова, «ЭПИДЕРМАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ИНДИКАТОРЫ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ТЕХНОГЕННЫМИ И ГЕОХИМИЧЕСКИМИ ИСТОЧНИКАМИ», Дата публикации 2023/11/1, Журнал «Innovations in Technology and Science Education», Том 2, Номер 15, Страницы 680-690.
 15. SS Abdurakhimova FS Nazarova, «Почки и мочевыводящие пути и их заболевания», дата публикации 2024/4/8, Журнал «Образование и Наука XXI века», Номер 49-1, Страницы 131-138, Издатель: Научно-образовательный электронный журнал.
 16. Fatima Sharipovna Nazarova, Sevinch Salimovna Abdurakhimova, «KIDNEY AND URINARY TRACT AND THEIR DISEASES», Дата публикации

- 2024/4/6, Журнал: Western European Journal of Medicine and Medical Science, Том 2, Номер 4, Страницы 32-36.
17. Fotima Sharipovna Nazarova, Ruhshona Nurbekovna Kuvondikova, «ТОКСОПЛАЗМОЗИС ГОНДИИ», Дата публикации 2024/3/22, Журнал: British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, Том 26, Страницы 56-59.
18. Fatima Sharipovna NAZAROVA, «ECOLOGICAL GROUPING OF PLANT PHYTONEMATODES.», Дата публикации 2024/3/5.
19. Fotima Sharipovna Nazarova, Khidirnazarov Muhammad, «Parasitic phytonematodes», Дата публикации 2024/2/23, Журнал: Global Scientific Review, Том 24, Страницы 63-68.
20. Fotima Sharipovna Nazarova, Jasmina Khalimova, «PARASITIC HELMINTHS AND THEIR BIOCHEMICAL AND PHYSIOLOGICAL CHARACTERISTICS», Дата публикации 2024/2/22, Журнал: Web of Teachers: Inderscience Research, Том 2, Номер 2, Страницы 137-140.
21. Фатима Шариповна Назарова, Жасмина Халимова, «ПАРАЗИТНЫЕ ГЕЛЬМИНТЫ И ИХ БИОХИМИЧЕСКАЯ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА», Публикация данных 2024 год, Журнал: Восточный ренессанс: инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, Том 4, Число 3, Страницы 656-660, Издатель ООО "Восточный Ренессанс".
22. Фатима Шариповна Назарова, Шахзод Асланов, «BIOLOGICAL SIGNIFICANCE OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES IN THE BODY, DISEASES ARISING FROM THE LACK OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES», Дата публикации 2023/12/21, Журнал: Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, Том 1, Номер 9, Страницы 32-35.
23. Фатима Шариповна Назарова, Наргиза Эшмаматовна Джуманова, «Экологическое Группирование Фитонематод Растений», Дата публикации 2023/6/6, Журнал: Miasto Przyszłości, Том 36, Страницы 24-30.
24. Fotima Sharipovna Nazarova, Ruhshona Nurbekovna Quvondiqova, «Asos hujayralari va uning tibbiyotdagi ahamiyati», Дата публикации 2023, Журнал: Science and Education, Том 4, Номер 11, Страницы 28-32, Издатель ООО «Open science».